

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHLTLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEXANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODEL.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARXNI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	420
Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich	



DAVLAT TASHKILOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISHNING PROAKTIV TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI TAHLILI	424
Xurshida Maxmadaminova	
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA MULTIMODAL TASHISHLAR VA LOGISTIKA TIZIMLARI SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARINI ANIQLASH	430
Zohidov Muhridin G'ofurjon o'g'li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AGROBIZNESNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	436
Noraliyeva Gavhar Murodqulovna, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	441
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI	447
Xamdamov Amriddin, Madig'oyibov Jamshid	
РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИДКОГО И ТВЁРДОГО АНТИГОЛОЛЁДНОГО РЕАГЕНТА ИЗ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ	452
Дадаходжаев Абдулла, Ахмедов Мансур, Гуро Виталий	
АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИКИ ДЛЯ УПЛОТНЕНИЯ ДАМБ	457
Шомирзаев Эргаш Хурсанович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINING ROLI	465
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	
HUDUDIY MEHNAT BOZORINI RAQAMLI BOSHQARISH: ISH O'RNI SIFATI PASPORTI VA ELEKTRON ISH O'RINLARI XARITASI ARXITEKTURASI	470
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI XIZMATLARIDA INNOVATSIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI VA ULARNI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	476
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
HUDUDLARDA QURILISH XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANISHINING IQTISODIY HOLATI TAHLILI .	483
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	



HUDUDLARDA QURILISH XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANISHINING IQTISODIY HOLATI TAHLILI

Mamadiyev Ahmad Ulashovich

Qarshi tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jaligi, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari

E-mail: ahmadmamadiyev4@gmail.com



Annotatsiya. Hozirgi vaqtda qurilish xizmatlari sohasining rivojlanish holatini baholash bilan bog'liq masalalar dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada hududlarda qurilish xizmatlari sohasining rivojlanish holati va uning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida sohaning rivojlanish tendensiyalari hamda iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi omillar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, qurilish xizmatlari, innovatsiya, korxona, iqtisodiyot, investitsiya, marketing, bozor, texnologiya, samaradorlik, energiya tejamkorligi, "yashil qurilish", sement, metallurgiya, transport.

АННОТАЦИЯ. В настоящее время оценка состояния развития сферы строительных услуг является одной из актуальных задач. В данной статье проведён анализ состояния развития сферы строительных услуг в регионах и рассмотрены её экономические показатели. По результатам анализа раскрыты основные тенденции развития отрасли и факторы, влияющие на её экономическую эффективность.

Ключевые слова: сфера услуг, строительные услуги, инновации, предприятие, экономика, инвестиции, маркетинг, рынок, технологии, эффективность, энергосбережение, «зелёное строительство», цемент, металлургия, транспорт.

Abstract. Assessing the current state of development of the construction services sector is one of the key challenges in today's economy. This article analyzes the development of the construction services sector in the regions and examines its economic performance. Based on the analysis, the main development trends of the sector and the factors influencing its economic efficiency are identified.

Keywords: services, construction services, innovation, enterprise, economy, investment, marketing, market, technology, efficiency, energy efficiency, green construction, cement, metallurgy, transport.

KIRISH.

Qurilish tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, u yangi obyektlarni foydalanishga topshirish, shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash ishlarini olib boradigan yagona tarmoqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi PF-59-sonli "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, mamlakatimizda qurilish sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, qurilishning barcha bosqichlarida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlardagi nashrlar ushbu masalani o'rganishning favqulodda murakkabligidan dalolat beradi. Qurilish xizmatlari ko'rsatish sohasi va uning iqtisodiy samaradorligining yakuniy o'lchovini tanlash bo'yicha olimlarning turli fikrlari mavjud. E.V. Basalayeving fikriga ko'ra, qurilish xizmatlari bilan shug'ullanuvchi subyektlarning holatidan kelib chiqib: "Iqtisodiy samaradorlikni nazariy jihatdan ta'riflashning o'zi kifoya emas, balki uning qiymatini baholash uchun ishonchli, tushunarli va qulay miqdoriy mezonlarni ishlab chiqish kerak. Shuning uchun zudlik bilan yangi yo'nalish – iqtisodiy potensialometriyani ishlab chiqish zarur, uning maqsadi iqtisodiy samaradorlikning sifat va miqdor ko'rinishlarini o'rganishdir" [1].

Ba'zi mualliflar [2] qurilish xizmatlari ko'rsatish sohasini baholash mezonlari sifatida mehnat resurslari,



tabiiy resurslar hamda xarajatlar ko'rsatkichlaridan foydalanishni taklif qiladilar. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy rivojlanish holati va uning samaradorligini baholashning zarurati shundaki, u bir tomondan [3] korxonaning barcha iqtisodiy resurslari umumiy qiymatini aniqlashga va shu bilan birga iqtisodiy samaradorlikning tarkibiy qismlari tuzilishi hamda dinamikasini o'rganishga imkon beradi, boshqa tomondan esa resurslar narxini korxonalarning boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan solishtirish imkonini yuzaga keltiradi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hududlarda qurilish xizmatlari sohasining rivojlanishining iqtisodiy holati tahlili bayon etildi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil etish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda, xususan, Qashqadaryo viloyatida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qurilish **tarmog'ini** rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- qurilish **xizmatlari** ko'rsatish sohasini modernizatsiya qilish va uy-joy qurilishi sifatini oshirish, shu jumladan, eskirgan texnologiyalardan foydalanishga cheklovlar o'rnatish, loyihalash va qurilish-pudrat ishlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, qurilish ishlari **me'yorlari** va standartlarini, uy-joy qurilishi sohasidagi faoliyatni tartibga solish bo'yicha huquqiy asoslarni davr talablari bo'yicha takomillashtirib borish;
- mamlakatda uy-joy qurilishi milliy loyihasi faoliyatini moliyalashtirish tizimini joriy etish davrida uy-joylarni foydalanishga topshirish hajmining pasayishi bilan bog'liq muammolarni aholining talab va istaklariga muvofiq ravishda hal etish;
- qurilish **xizmatlari** ko'rsatuvchi korxonalarning innovatsion faoliyati ko'lamini kengaytirishga va sohaga ilg'or texnologiyalarni kiritishga to'sqinlik qiluvchi cheklovlarni olib tashlash;
- qurilish **xizmatlari** ko'rsatuvchi korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va yangi texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish;
- qurilish **xizmatlari** ko'rsatuvchi korxonalarni raqamlashtirish, shu jumladan, muhandislik tadqiqotlari, loyihalash va qurilish ishlarida, shuningdek, ushbu tarmoqni boshqarishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- shahar muhiti sifat indekslarini hisobga olgan holda qulay shahar muhitini shakllantirish va rivojlantirish, shaharlar va boshqa aholi punktlarini kompleks rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- fuqarolik, sanoat va transport qurilishi sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini takomillashtirish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish, shu jumladan, energiya tejovchi materiallardan foydalanishni oshirish, qurilish xizmatlari eksportini rivojlantirish;
- qurilish tarmog'i uchun yetuk **kadrlar** tayyorlashda nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Bugungi kunda qurilish tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur'atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Bizningcha, ushbu tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda biz tomonidan taklif etilgan vertikal tahlil usulidan foydalanish yuqori natijaga va aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, ushbu tahlil usulidan foydalanish orqali ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi va o'zaro bog'liqligini ham kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi.

Makroiqtisodiy tahlil natijalari 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlangan tarmoqlaridan biri bo'lganligini ko'rsatdi. Ushbu davrda xizmatlar hajmi yilma-yil barqaror o'sib, 2025-yilda bozor xizmatlari hajmi 1 kvadrillion (1050 trln) so'mdan oshdi va 2024-yilga nisbatan 14,7 foizga ko'paydi [5].

Tadqiqotlar natijasida xizmatlar sektorining o'sishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi, degan xulosaga kelindi. Bular jumlasiga iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va elektron xizmatlarning kengayishi, savdo, transport, moliyaviy va axborot-kommunikatsiya xizmatlariga talabning ortishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati, aholi daromadlari va iste'mol talabining o'sishi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining kengayishini kiritish mumkin.

Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar, axborot texnologiyalari, savdo va transport xizmatlari yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2025-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari xizmatlar hajmining qariyb 55–57 foizini shakllantirdi,




bu esa sohaning iqtisodiy faollik va bandlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yanada oshirdi. O'zbekistonda 2021–2025-yillar davomida xizmat ko'rsatish sohasining o'sish hajmida ijobiy tendensiyalar ro'y berdi. 2024-yilga nisbatan 2025-yilda o'sish hajmi 28,3 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda 2021-2025-yillar davomida xizmat ko'rsatish sohasini o'sish hajmi, mlrd. so'm hisobida [6]

№	Viloyatlar	Yillar					2025-yilda-2024-yilga nisbatan o'zgarish foizda
		2021	2022	2023	2024	2025	
1	O'zbekiston Respublikasi	284388,1	366891,0	649806,4	818428,3	1 050292,5	128,3
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8458,4	10595,3	23040,1	28820,7	35196,2	122,2
3	Andijon viloyati	14459,6	17804	33643,1	41807,5	53969,6	129,0
4	Buxoro viloyati	12574,1	15848,8	28157,8	34495,1	42659,2	123,6
5	Jizzax viloyati	6395,7	8127,3	15970,8	20069,5	24612,9	122,6
6	Qashqadaryo viloyati	12907,4	15967,7	34956,0	43255,9	54118,1	125,1
7	Navoiy viloyati	7459,6	9322,8	16247,2	20055,6	25733,6	128,3
8	Namangan viloyati	11619,5	14693,4	34468,0	43090,6	56282,9	130,6
9	Samarqand viloyati	18259	22953,6	46593,0	58875,7	78163,1	132,7
10	Surxondaryo viloyati	10387,4	12838,4	23159,1	28505,9	35561,3	124,7
11	Sirdaryo viloyati	4183,1	5018,8	9368,8	11609,1	14611,4	125,8
12	Toshkent viloyati	21197,4	25919,7	45199,2	56317,9	71783,7	127,4
13	Farg'ona viloyati	17705,2	22131,8	44130,6	55200,7	71765,9	130,0
14	Xorazm viloyati	8348,1	10480,4	22601,2	28262,0	36911,6	130,6
15	Toshkent shahri	164364,9	195564,1	230819,9	298825,6	397414,2	132,9

Tadqiqotimiz davomida O'zbekistonda 2011–2025-yillarda qurilish ishlari hajmining makroiqtisodiy tahlili va rivojlanish tendensiyalarini tahlil etdik (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda 2011-2025-yillarda qurilish ishlarining hajmi (mlrd, so'mda)[7]

1-rasmda keltirilgan grafik ma'lumotlari asosida O'zbekistonda qurilish tarmog'ining rivojlanishi makroiqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, ushbu soha mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim drayverlaridan biriga aylanganini ko'rish mumkin.

2011–2025-yillar oralig'ida qurilish ishlari hajmi 9 504,8 mlrd so'mdan 288 172,1 mlrd so'mgacha oshgan. Bu davrda qurilish hajmi qariyb 30 baravar ko'paygan.

Mazkur o'sishni quyidagi makroiqtisodiy omillar bilan izohlash mumkin:

- aholi sonining ko'payishi va uy-joyga bo'lgan talabning ortishi;
- urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi;
- davlat infratuzilma loyihalarining kengayishi;
- investitsiya faolligining oshishi;
- sanoat va transport infratuzilmasining rivojlanishi.

Qurilish hajmining bunday yuqori sur'atlarda o'sishi iqtisodiyotda kapital jamg'arish jarayonlari kuchayganini va asosiy fondlarga investitsiyalar hajmi ortganini ko'rsatadi.

2011–2016-yillar – barqaror o'sish davri kuzatildi. Ushbu davrda qurilish hajmi: 2011-yilda – 9,5 trln so'm, 2016-yilda – 29,4 trln so'm. O'sish nisbatan sekin, ammo izchil bo'lgan. Bu davrda asosiy omillar – yangi turar joylar qurilishi, ijtimoiy obyektlar (maktab, shifoxona, infratuzilma) barpo etilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish. Mazkur bosqich iqtisodiyotda qurilish sektorining mustahkam poydevori shakllangan davr sifatida baholanadi.

2017–2022-yillar – investitsion faollikning kuchayishi bilan xarakterlanadi. 2017-yilda qurilish hajmi 34,7 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 130,8 trln so'mga yetgan. Bu davrda qariyb 4 baravarlik o'sish ro'y berdi. Asosiy sabab sifatida iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, xususi sektor faolligining oshishi, yangi sanoat zonalarining tashkil etilishi, transport va energetika infratuzilmasiga investitsiyalar, ipoteka va uy-joy dasturlarining kengayishini ko'rsatish mumkin. Bu bosqichda qurilish sohasi iqtisodiy multiplikator vazifasini bajargan, ya'ni qurilish bilan bog'liq boshqa tarmoqlar (sement, metallurgiya, transport, ishlab chiqarish xizmatlari) ham rivojlangan.

2023–2025-yillar – tezlashgan o'sish davrini ko'rsatdi. Eng keskin o'sish aynan ushbu davrda kuzatildi, ya'ni: 2022-yil – 130 790,9 mlrd so'm, 2023-yil – 222 935,8 mlrd so'm, 2025-yil – 288 172,1 mlrd so'm. 2022–2023-yillarda o'sish hajmi qariyb 70 foizdan ortiq bo'lgan. Bunday keskin o'sishga quyidagi omillar ta'sir etgan, degan xulosaga kelindi: yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi, yangi turar joy massivlarining barpo etilishi, investitsiya loyihalarini sonining ko'payishi, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining oshishi, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari.

Qurilish sohasi yalpi ichki mahsulot tarkibida muhim ulushga ega. Tadqiqotimiz davomida qurilish sohasi xizmatlarining asosiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Bu tendensiyalar quyidagilar:

1. Qurilishning tez sur'atlarda kengayishi

2011–2025-yillar davomida soha hajmining 30 baravar oshishi uzoq muddatli o'sish tendensiyasini ko'rsatadi.

2. Investitsiyaga yo'naltirilgan rivojlanish modeli

Qurilish o'sishi asosan kapital qo'yilmalar va davlat-xususiy loyihalar hisobiga ta'minlanmoqda.

3. Urbanizatsiya ta'sirining kuchayishi

Shaharlar kengayishi, yangi massivlar va infratuzilma obyektlariga ehtiyoj qurilishga bo'lgan talabni oshirmoqda.

4. Qurilish sektorining iqtisodiy multiplikativ roli

Sohadagi o'sish boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishini rag'batlantirmoqda.


5. Kelajakdagi yo'nalishlar

Kelgusida quyidagi tendensiyalar kuchayishi mumkin:

- energiya tejamkor va "yashil" qurilish;
- raqamli loyihalashtirish texnologiyalari;
- zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish;
- xususi investitsiyalar ulushining oshishi;
- infratuzilma loyihalarining davom etishi.

2011–2025-yillar davomida O'zbekistonda qurilish sohasi yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan strategik tarmoqlardan biri bo'ldi. Qurilish hajmining 9,5 trln so'mdan 288,2 trln so'mgacha oshishi mamlakatda investitsion faollik, urbanizatsiya va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari jadallashganini ko'rsatadi.

Biroq, kelajakda barqaror rivojlanish uchun qurilishda nafaqat hajmiy o'sish, balki sifat, energiya samaradorligi, ekologik barqarorlik va texnologik innovatsiyalar asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylanishi lozim (2-rasm).



2-rasm.Qashqadaryo viloyatida 2011-2025-yillarda qurilish ishlarining rivojlanish dinamikasi (mlrd, so'mda)[8]

2-rasm ma'lumotlari Qashqadaryo viloyatida 2011–2025-yillarda qurilish ishlari hajmi 791,5 mlrd so'mdan 17 912,3 mlrd so'mgacha oshib, qariyb 22,6 baravar ko'payganligini ko'rsatadi. Bu hududda investitsiya faolligi, infratuzilmaviy rivojlanish va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari jadallashganini ko'rsatadi ("2-rasmga qarang").

Kelgusida Qashqadaryo qurilish sektorining rivojlanishida:

- zamonaviy va energiya tejamkor qurilish texnologiyalarini joriy etish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarishini kengaytirish;
- investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish;
- ekologik barqaror qurilish tamoyillarini qo'llash asosiy strategik yo'nalishlar bo'lib qoladi.

Aholi daromadlarini ko'paytirish masalasi nafaqat ijtimoiy, balki muhim iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. Chunki kambag'allikdan qutilgan kishida hayotdan qoniqish bo'ladi va bunda yashashdan rozilik alomatlari ham namoyon bo'lib turadi. Bunday shaxslarda bunyodkorlik tuyg'usi shakllanishi uchun imkoniyatlar ham paydo bo'ladi. Mamlakatimiz asta-sekinlik bilan daromadning o'rtacha darajasi bo'yicha ikkinchi guruhga, ya'ni 5,5 dollarga chiqishi uchun kurashmog'i lozim. Bunda aholining o'rtacha daromadi bir kishiga 4 086 dollardan 12 615 dollar oralig'ida bo'lishi lozim. Agar milliy daromadimiz bo'yicha o'rtachadan balandroq mamlakatlar safiga kiradigan bo'lsak, bir kunda bir kishiga to'g'ri keladigan kambag'allik chizig'ining o'rtacha ko'rsatkichi 5,5 dollarni tashkil qiladi. Shundagina rivojlangan mamlakatlardagi aholi farovonligining ostonasiga qadam qo'yamiz. Ushbu holat quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda o'rtacha oylik ish haqi 2020-2024-yillardagi o'sish dinamikasi [9]

T/r	Yillar	O'rtacha ish haqi yillar kesimida, mln. so'm.	O'zgarish sur'ati, %
1.	2020	2 mln 585 ming so'm	100,0
2.	2021	2 mln 877 ming so'm	111,3
3.	2022	3 mln 418 ming so'm	132,2
4.	2023	4 mln 106 ming so'm	158,8
5.	2024	4 mln 920 ming so'm.	190,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda o'rtacha oylik ish haqi 2020-2024-yillardagi o'sish dinamikasi barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Shu davrda 190,3 %ni tashkil qilmoqda. Mamlakatimizda o'rtacha oylik bemaol kambag'allik chegarasidan yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi. Ushbu holatni sohalar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, oylik va yillik ish haqi quyidagi jadvalda keltirdi (3-jadval).



3-jadval

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari (sohalar) bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi (2024-yil 1-chorak) [10]

T/r	Iqtisodiyot sohalari	O'rtacha bir oylik ish haqi, mln. so'm	O'rtacha-ga nisba-tan, %	Yillik ish haqi, mln. so'm
1.	Sanoat	3672,0	102,0	44064,0
2.	Qurilish	3587,2	99,6	43044,0
3.	Savdo	2868,4	79,7	34420,8
4.	Tashish va saqlash	3720,7	103,3	44648,4
5.	Axborot va aloqa	4836,4	134,3	58036,8
6.	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	6464,9	179,5	77578,8
7.	Ta'lim	2246,8	62,4	26961,6
8.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2048,6	56,9	24580,8
9.	Boshqa faoliyat turlari	2972,8	82,6	35673,6
	Jami	32412,8	X	412953,6
	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha	3601,4	100,0	45883,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng yuqori ish haqi moliyaviy va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanayotgan xodimlarga to'g'ri keladi. Ularning ish haqi o'rtachaga nisbatan 179,5 %ni tashkil qiladi. Ikkinchi o'rin axborot va aloqa xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi. Ularning ish haqi miqdori o'rtacha oylikka nisbatan 134,3 %ga teng. Shuningdek, tashish va saqlash (103,3 %) hamda sanoat sohasidagi (102,0 %) ish haqi miqdori ham o'rtachadan yuqori. Eng kam ish haqi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi xodimlariga to'g'ri kelib, ularning ish haqi o'rtachaga nisbatan atigi 56,9 %ni tashkil qilmoqda. Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, bir kishiga kambag'allikning eng quyi qatlamida bir oyda daromad 598,5 ming so'mni ($1,9 \times 30 \times 10,5$) tashkil qiladi. Agar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi xodimlari oilasida 4 kishi bo'lsa, boshqa oila a'zolari ishlamasa va qo'shimcha daromadi bo'lmasa, ushbu oilani kambag'allik chegarasidan chiqarish qiyin. Qolgan sohalarni ham xuddi shu tarzda qiyosiy jihatdan tahlil qilish mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan shuni tahlil qilish mumkinki, qarorda belgilangan vazifalarga muvofiq Samarqand shahridagi ko'p xonadonli uylarni ta'mirlash maqsadida jami 60 031 mln so'm mablag' ajratilgan bo'lib, bu mablag'lar imtiyozli kreditlar, xorijiy moliya muassasalari kreditlari, mahalliy hokimiyat organlari mablag'lari hamda budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bilan birgalikda ushbu mablag'lar 2020–2024-yillar mobaynida ko'p xonadonli uy-joylarning tom qismi, kirish yo'laklari, ichki muhandislik tarmoqlari hamda fasad qismlarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish maqsadida ishlatiladi. Ushbu jarayon amalga oshishi natijasida ko'p xonadonli uy-joylar zamon talablariga javob beradigan, sanitariya-gigiyena qoidalariga mos hamda sifatli kommunal xizmat ko'rsatiladigan uy-joylar toifasiga kirishi mo'ljallangan (4-jadval).

4-jadval

Samarqand viloyatida 2020-2024 -yillarda ko'p xonadonli uy joy fondining umumiy foydalanadigan joylarning mukammal va joriy ta'mirlash parametrlari [11]

No	Hudud nomi	Jami ko'p qavatli uylar soni	Shundan ta'mirlanadigan uylar soni	Jami sarflanadigan moliyaviy mablag'lar qiymati (mln so'm)
1	Samarqand shahar	1078	1078	60031
Shu jumladan				
	2020-yil	1035	319	14484
	2021-yil	1042	308	14011
	2022-yil	1053	186	12521
	2023-yil	1065	122	8988
	2024-yil	1078	143	10027



Biroq, hozirgi davrda zamonning tez sur'atlarda rivojlanishini inobatga olgan holda ushbu ta'mirlash jarayonlarini yanada zamonaviy, jahon standartlariga javob beradigan darajada rekonstruksiya qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun yo'laklarga zamonaviy va aqlli yoritgichlar o'rnatish, "aqlli uy", "xavfsiz uy" tizimini joriy qilish elektr energiyasini tejashga, aholi xavfsizligini hamda atrof-muhit tozaligini saqlashga olib kelar edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Hududlarda qurilish xizmatlari sohasining iqtisodiy holatini tahlil qilish ushbu tarmoqning rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolari va foydalanilmayotgan imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday tahlil qurilish sohasining hududiy iqtisodiyotdagi o'rni, investitsiya faolligi, bandlik darajasi va yalpi hududiy mahsulotni shakllantirishdagi hissasini baholash imkonini beradi. Tahlil natijalari hududlar kesimida qurilish xizmatlari rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiy-matematik modellar va prognozlar ishlab chiqish uchun ishonchli axborot bazasini yaratadi.

Tahlil natijalari davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar tomonidan hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, investitsiya siyosatini takomillashtirish, infratuzilma loyihalarini ustuvorlashtirish hamda qurilish xizmatlari bozorida raqobat muhitini rivojlantirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo'ladi. Natijada qurilish xizmatlari sifatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Hududlarda qurilish xizmatlari sohasining rivojlanishining iqtisodiy holatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni tavsiya etishni maqsadga muvofiq deb topdik:

Hududlar kesimida qurilish xizmatlari rivojlanishini baholovchi kompleks indikatorlar tizimini joriy etish. Bunda qurilish ishlari hajmi, investitsiyalar, qurilish korxonalari soni, bandlik darajasi, mehnat unumdorligi va qurilish xizmatlarining YAHMdagi ulushi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qurilish sohasiga investitsiyalarni hududlar bo'yicha mutanosib taqsimlash mexanizmini takomillashtirish. Investitsiyalarni aholining o'sishi, urbanizatsiya darajasi, infratuzilma ehtiyojlari va hududning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib yo'naltirish tavsiya etiladi.

Qurilish xizmatlari bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi loyihalarni ko'paytirish, kichik va o'rta qurilish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash sohaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Hududiy qurilish xizmatlari samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish tizimini yaratish. GIS, BIM (Building Information Modeling), elektron tender va onlayn monitoring platformalaridan foydalanish loyiha xarajatlarini kamaytiradi va shaffoflikni ta'minlaydi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishni mahalliyalashtirishni kengaytirish. Hududlarda mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish importga qaramlikni kamaytirib, qurilish tannarxini pasaytiradi.

Qurilish xizmatlari sifatini oshirish maqsadida malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish. Olii ta'lim muassasalari va qurilish tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash zarur.

Hududlarning qurilish xizmatlari rivojlanishini prognozlashning iqtisodiy-matematik modellarini ishlab chiqish. Prognoz natijalari hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Energiya tejamkor va "yashil qurilish" texnologiyalarini joriy etishni rag'batlantirish. Bu qurilish obyektlarining ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish. Qurilish xizmatlari hajmi nisbatan past bo'lgan hududlarga qo'shimcha investitsiyalar va imtiyozlar berish ularning iqtisodiy faolligini oshiradi.

Qurilish xizmatlari samaradorligini baholashning zamonaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini amaliyotga joriy etish. Kapital qo'yilmalarning rentabelligi, mehnat unumdorligi, investitsiya qaytimi va qurilish xizmatlarining qo'shilgan qiymati kabi indikatorlardan muntazam foydalanish boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi.

Hududlarda qurilish xizmatlari sohasining iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilish va yuqoridagi takliflarni amaliyotga tatbiq etish hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, qurilish xizmatlari bozorida sog'lom raqobatni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda aholini sifatli uy-joy va ijtimoiy obyektlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada qurilish sektori hududiy iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida o'z mavqeini yanada mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Басалаева Е.В. О проблемах исследования экономического потенциала и некоторых способах их решения // Научная сессия МИФИ–2006. Т. 13. – М.: Всероссийский заочный финансово-экономический институт, 2006. – С. 45–50.
2. Головина Л.А., Жигунова О.А., Семенова С.В. Теоретические аспекты прогнозирования вероятности банкротства и учет, связанный с процедурами банкротства на предприятиях: монография. – М.: Нефть и газ, 2008. – 125 с.
3. Гунина И.А. Теоретико-методологические основы формирования концепции развития экономического потенциала предприятия // Машиностроитель. – 2004. – № 10. – С. 10–14.
4. Жигунова О.А. Теория и методология анализа и прогнозирования экономического потенциала предприятия: монография. – М.: ИД «Финансы и Кредит», 2010. – 140 с.
5. Gazeta.uz. O'zbekistonda o'rtacha ish haqi bo'yicha ma'lumotlar. 2024-yil 29-aprel.
6. O'zbekistonda o'rtacha oylik qancha? // Telegram, 2024-yil 27-aprel.
7. Muallif tadqiqotlari asosida "Kommunal issiqlik markazi" balans ma'lumotlaridan foydalanildi.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100